

ABDULLA QODIRIYNING "O'TKAN KUNLAR" ROMANIDA QO'LLANGAN ANTROPONIMLAR TAHLILI

Xo'jayorov Bahrom Alisher o'g'li,

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institute talabasi

Ilmiy rahbar: Yusupov Sardor Shodi o'g'li, O'zbek tili va adabiyoti kafedrası assistenti

bahromxojayorov49@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida qo'llangan antroponimlar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida shaxs ismlari va taxalluslarning lug'aviy hamda ma'noviy xususiyatlari, ularning milliy qadriyatlar, diniy e'tiqod va tarixiy jarayonlar bilan bog'liqligi yoritildi.

Kalit so'zlar. Abdulla Qodiriy, "O'tkan kunlar", antroponimlar, arabiy ismlar, forsha ismlar, turkiycha ismlar.

ABDULLA KADIRI'NIN "GEÇMİŞ GÜNLER" ROMANINDA KULLANILAN ANTROPONYİM ANALİZİ

Hocayorov Bahrom Alişer oğlu,

Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü öğrencisi

Yusupov Sardor Shodi o'g'li, bilimsel danışman

Özbek dili ve edebiyatı bölümü asistanı

Özet. Bu makalede Abdulla Qodiriy'nin "Geçmiş Günler" adlı romanında kullanılan antroponimler incelenmektedir. Araştırmada kişi adları ve lakapların leksik ve manevi özellikleri, milli değerlerle, dinsel inançlarla ve tarihi süreçlerle bağlantısı incelenmiştir.

Anahtar kelimeler. Abdulla Qodiriy, "Geçmiş Günler", antroponimler, Arapça isimler, Farsça isimler, Türkçe isimler.

АНАЛИЗ АНТРОПОНИМОВ, ИСПОЛЬЗОВАННЫХ В РОМАНЕ АБДУЛЛЫ КАДИРИ «МИНУВШИЕ ДНИ»

Ходжаёров Бахром Алишер оглы,

студент Узбекско-Финского педагогического института

Юсупов Сардор Шоди угли, научный руководитель,

ассистент кафедры узбекского языка и литературы

Аннотация. В статье анализируются антропонимы, используемые в романе Абдуллы Кадыри «Минувшие дни». В ходе исследования были изучены лексические и духовные характеристики личных имен и прозвищ, их связь с национальными ценностями, религиозными верованиями и историческими процессами.

Ключевые слова. Абдулла Кодир, «Минувшие дни», антропонимы, арабские имена, персидские имена, турецкие имена

ANTHROPONYMS ANALYSIS USED IN ABDULLA QADIRI'S NOVEL "DAYS OF PAST"

Khojayorov Bahrom Alisher oglu,

student of Uzbek-Finnish pedagogical institute

Yusupov Sardor Shodi o'g'li, scientific advisor,

assistant of the Department of uzbek language and literature

Abstract. *This article analyzes the anthroponyms used in Abdulla Qodiriy's novel "Days Past". The study sheds light on the lexical and spiritual characteristics of personal names and nicknames, their connection with national values, religious beliefs and historical processes.*

Keywords. *Abdulla Qodiriy, "Days Past", anthroponyms, Arabic names, Persian names, Turkish names.*

Antroponimlar (shaxsning ismi, laqabi va taxallusi) o'zbek xalqining qadimiy madaniy-ma'naviy hamda lisoniy qadriyatlaridan biridir.

O'zbek antroponimlarining lug'aviy va ma'noviy xususiyatlari axloqiy jihatdan yetuk, komil inson bo'lishini istash tushunchasini ifoda etuvchi ism berish.

Diniy motivlar. Ushbu motiv ma'lum tarixiy sharoit tufayli o'zgarib turgan bo'lsa-da, uning asosiy mazmuni diniy e'tiqod motivi bolaga ism tanlashda yetakchi tasavvurlardan biri bo'lgan. Masalan, turkiy xalqlarning islom diniga o'tishi uning antroponimiya tizimiga katta ta'sir ko'rsatgani bunga dalil bo'la oladi. Keltirilgan motivlar o'zbek ismlarining paydo bo'lishi, ismlar fondining shakllanishi va boyishida asosiy omillik rolini o'ynagan va hozirga qadar an'anaviy fond sifatida iste'molda bo'lishini ta'minlagan.

Keltirilgan motivlarning barchasi o'zbek antroponimiyasi rivojidadagi ekstralingvistik (nolingvistik) omillar bo'lib, buni etnolingvistika, sotsiolingvistika, shuningdek, tarix va madaniyat tarixi sohalari ham o'rganadi.

Otabek – bu ism qahramonining zodagonlik darajasi, jasurligi va oilaviy qadriyatlari bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Otabek obrazi milliy qahramonlik vatanparvarlik va an'anaviy qadriyatlari ifodalanadi. Otabek – beklar boshlig'i, nasl-nasabli bola degan ma'noni anglatadi.

1. Yusufbek Hoji. "Yusuf" ismi arabcha bo'lib, "xudo qo'shsin" yoki "xudo orttirsin" degan ma'noni anglatadi. Hoji esa, haj ziyoratini ado etgan kishiga nisbatan aytiladi.

2. Kumush. Turkiycha so'z bo'lib, quyidagi ma'nolarga ega: e'tiborni tortuvchi qiz yoki oq yuzli, oq badan, nafis go'zal qiz.

3. Hasanali. Hasan – arabcha so'z bo'lib go'zal, chiroyli degan ma'noni bildiradi, Ali esa, yuqori, ulug' degan ma'noni anglatadi.

4. Homid. Arabcha ismi bo'lib, maqto'vchi yoki maqto'vga sazovor degan ma'noni anglatadi.

5. Zaynab. Arabcha so'z bo'lib, "go'zal", "ziynatli" degan ma'noni anglatadi.

6. Mirzakarim. Mirza forscha so'z hisoblanadi va yozuvchi yoki kotib ma'nolarini anglatadi. Karim esa, arabcha saxiy, oliyjanob degan ma'nolarini bildiradi. Birgalikda esa, oliyjanob inson ma'nosini anglatadi.

Qutidor. "Quti" (baxt, saodat) va "dor" (egasi) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, "baxt egasi" yoki "saodatli" degan ma'noni anglatadi.

7. Rizvonbek. "Rizvon" arabcha bo'lib, "rozi qilganman" degan ma'noni anglatadi. "Bek" esa "hokim" yoki "rahbar" degan ma'noni anglatadi.

8. Xushro'y. Forscha ism bo'lib, "xush" (yoqimli) va "ro'y" (yuz) so'zlaridan "yoqimli yuzli" yoki "chiroyli" degan ma'noni anglatadi.

9. Musulmonquli. "Musulmon" va "qul" so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, "Allohning quli" degan ma'noni anglatadi.

10. Alim. Arabcha ism bo'lib, "bilimdon, olim" degan ma'noni anglatadi.

11. Sodiq. Arabcha ism bo'lib, "sodiq", "ishonchli" degan ma'noni anglatadi.

12. Olim. Arabcha ism bo'lib, "bilimdon" "olim" ma'nosini bildiradi.

13. Qobil. Arabcha ism bo'lib, "qobiliyatli", "istedodli" degan ma'noni anglatadi.

14. Solih. Arabcha, "solih", "ezgu", "yaxshi" degan ma'noni anglatadi.

15. Abdurahmon. Arabcha "Abd" - (qul) va "Rahmon" (Allohning ismlaridan biri "mehribon") so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, "Allohning quli" degan ma'noni anglatadi.

16. Iskandar. Yunoncha, "Aleksandr" ismining o'zbekcha ma'nosi bo'lib, "insonlarni himoya qiluv" degan ma'noni anglatadi.

17. Xolida. Arabcha ism bo'lib, "abadiy", "mangu", degan ma'noni anglatadi.

18. Zulfiya. Arabcha ism bo'lib, "sochlari jingalak" yoki "sochlari silliq" degan ma'noni anglatadi.

19. Rahmat. Arabcha ism bo'lib, "rahmat", "marhamat" degan ma'noni anglatadi.

20. Shamsiya. Arabcha ism bo'lib, "quyoshga oid" yoki "quyoshli" degan ma'noni anglatadi.

21. Habiba. Arabcha ism bo'lib, "sevimli", "yoqimli" degan ma'noni anglatadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, roman qahramonlarining ismlari ularning ijtimoiy mavqeyi, axloqiy fazilatlar va hayotdagi o'rnini aks ettiradi. Otabek ismi zodagonlik va jasorat ramzi sifatida qo'llangan. Yusufbek Hoji ismi diniy hurmat va tajriba ma'nosini ifodalaydi. Kumush ismi esa go'zallik va nafosat ramzi hisoblanadi.

Romandagi antroponimlar arabcha, forsiy va turkiy manbalardan kelib chiqqan bo'lib, ularning semantik ma'nolari o'zbek madaniyati va tilining rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Shuningdek, maqolada antroponimlarning tarixiy shakllanishi, ularning diniy va milliy motivlari ham o'rganildi. Natijada o'zbek antroponimiyasida ekstralingvistik omillar, jumladan etnolingvistika va sotsiolingvistika asosiy rol o'ynashi aniqlandi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'zbek xalqining nom tanlash an'analari, uning madaniy merosi va tarixiy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Qodiriy. O'tkan kunlar, roman, "Abadiy barhayot asarlar" turkumi. Nashrga tayyorlovchi: Xondamir Qodiriy, T.: "Navro'z", 2019. - 400 b.
2. Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili (darslik), Toshkent, "Universitet" nashriyoti, 2006, 476 b.
3. Ўзбек тили антропонимикаси. Э.А.Бегматов. Тошкент: Фан, 2013. 264 б.
4. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/barcha-kitoblar?start=6>